



**USTRUSHONA HUDUDIDAGI QADIMGI VA O'RTA ASRLARGA
OID SHAHARLARNI ARXEOLOGIK O'RGANILISHI**

Avazbek Hamidov Murodovich

Ziyo Education o'quv markaz rahbari

Annotatsiya: Ustrushona qadimiyatini o'r ganilishi Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olganidan keyin XIX asrning 60-yillarida rus ma'rifatparvar ziyolilari sharqshunoslar, arxeologlar, tarixchilar tomonidan boshlangan. Ta'kidlash joizki, dastlabki paytlarda moddiy madaniyat yodgorliklarini tadqiq etishda rus harbiy topograflari va zabitlari antikvar kolleksiya yig'ish maqsadida bir muncha ishlarni amalga oshirishgan.

Kalit so'zlar: Qal'a topografik xarit, qoyatosh, sharh, imlo, yodgorlik, lavha arxeologiya, antropologiya

Qadimgi shahar xarobalari ularni e'tiborini tortgan va harbiy topograflar qachonlardir hayot hukm surgan bu tarixiy inshootlarni topografik planlarini chizib, tavsifini tuzishgan, u yerda qazuv, qidiruv ishlarini o'tkazishgan.

Ustrushona hududidagi madaniy yodgorliklarni rasman o'r ganish uchun birinchi ilmiy safar taniqli sharqshunos P.I. Lerx tomonidan 1867-yilda amalga oshirilgan. Rossiya Davlat Imperator Akademiyasining maxsus topshirig'i bilan Turkistonga ilmiy safar uyushtirgan P.I. Lerx rahbarligidagi ilmiy guruh kazak otryadi konvoyligida Jizzax yakinidagi Ilono'tti darasi qoyatoshlariga arab imlosida bitilgan ikkita tarixiy lavhadan nusxa ko'chirgan va uni o'qib, sharhlashga muvaffaq bo'lgan. Natijada, Mirzo Ulug'bek Ko'ragonning hijriy 828-yilda (1425-y) Jetalar yurti (Mo'g'uliston)ga qilgan g'alabali harbiy yurishi hamda Buxoro hukmdori Abdullaxon II ning Toshkent, Farg'ona va qozoq



sultonlari ustidan qozongan g‘alabasi haqidagi zafarnomalari fanga ma’lum bo‘ladi.

XIX asrning 70-yillarida Ustrushonaning tarixiy-madaniy o‘lkalaridan biri Shahristonga Xo‘jand uyezdi boshlig‘i polkovnik A. Ko‘shakevich tashrif buyuradi va ushbu yerda saqlanib qolgan pishiq, g‘ishtlardan qurilgan qadimiy inshoot haqida xalq orasida tarqalgan rivoyatlar, mavzening qadimiyatiga doir ma’lumotlarni qayd etadi.

1890-yilda Shahristonga taniqli mutaxassis, arxeolog va sharqshunos N.S.Likoshin keladi. U birinchilardan bo‘lib Chilhujra qal’asining bat afsil tavsifini yozadi, Shahristonni o‘rganib uning to‘liq tavsifnomasini tuzadi, ma’lumotlarini qayd etadi. N.S.Likoshin Shahriston botig‘ida joylashgan bir qator qadimiy inshootlarning sug‘orilish tarixiga alohida e’tibor qaratadi.

Shahristonda 1893-yilda o‘tkazilgan dastlabki arxeologik qazuv ishlari O‘ratepa uchastka pristavi kapitan Stepanov nomi bilan bog‘liq. Qazuv ishlarining natijalari haqida Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagining 1896-yil 16-oktyabrda o‘tkazilgan majlisida ma’lumot berilgan.

1894-yil Xo‘jandan Shahristonga qadar sayohat kilgan V.V.Bartold Shahriston va Chilhujra tarixi bilan bog‘liq afsona va rivoyatlarni mahalliy aholi tilidan yozib oladi. Uning fikricha, ikkinchi yodgorlik alohida diqqatga sazovor bo‘lgan. Shahriston botig‘idagi arxeologik yodgorliklarni va ulardan topilgan ayrim materiallarni IX-X asr tarixchi va geograflari asarlaridagi ma’lumotlar bilan solishtirib o‘rgangan olim Ustrushonada Arab xalifaligining kolonial siyosati bir muncha kuchsiz bo‘lganligini va shu omil tufayli arab madaniyatini ta’siri mahalliy madaniyatga chegaralangan darajada ta’sir ko‘rsatganligini e’tirof etadi. Taniqli sharqshunos birinchi bo‘lib, yozma manbalarda ma’lumot berilgan Ustrushonaning poytaxti Bunjikatni Shahristondagi shahar xarobalari o‘rnida bo‘lganligini ta’kidlaydi.



Toshkent shahrida 1895-yilda Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagini tashkil topishi natijasida, o‘lkada olib borilayotgan arxeologik qidiruv va qazuv ishlari yanada faollashadi, qazuv qidiruv tadqiqotlari imkon kadar rejali asosda, aniq ilmiy maqsadlarga yo‘naltiriladi. To‘garakning 1896-yil 3-iyulda bo‘lib o‘tgan majlisida Shahriston va uning atrofidagi arxeologik yodgorliklar bo‘yicha aniq ma’lumotlar to‘plash haqida qaror qabul qilinadi. Ushbu qaror munosabati bilan O‘ratepa uchastka pristavi P.S.Skvarskiy tomonidan Shahriston qadimiyati bo‘yicha o‘sha davr uchun to‘liq hisoblangan ma’lumot to‘planadi, ko‘plab qadimiy moddiy-madaniyat namunalari yig‘iladi, Shahristonsoy havzasidagi bir kator qadimgi turarjoy xarobalarining ro‘yxati tuziladi, joylashgan o‘rni belgilanadi. P.S.Skvarskiy Vagat qishlog‘i va unda yashovchilar Ahamoniylar shohi Doro Qushtasbning avlodlari ekanligi haqidagi rivoyatni ham keltiradi.

Ustrushona qadimiyatini o‘rganishda I.A.Kastanening xizmatlari alohida diqqatga sazovordir. Bu tadqiqotchi Ustrushona mamlakati haqida o‘z davri va sharoitidan kelib chiqib maksimal darajada ma’lumotlar yig‘gan, imkoniyati boricha bu tarixiy-madaniy o‘lkaning o‘tmishini to‘liq yaratishga harakat qilgan. I.A. Kastane birinchilardan bo‘lib, O‘ratepaning tarixiy-topografik tavsifini tuzadi, uning Shahristoni haqidagi fikrlarini bayon qiladi. U o‘rta asrlarda faoliyat ko‘rsatgan Shahriston (Qal‘ayi-Qahqaha) xarobalarini o‘rganadi, tavsifini tuzdi, mudofaa devorlari haqida qimmatli ma’lumotlar qayd etadi, shaharning suv ta’mnoti bo‘yicha ma’lumotlar to‘playdi. Chilhujrava Shahriston “kotlovan” idagi qal‘a, qo‘rg‘onlar, ular haqidagi mahalliy xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlarni yig‘ib, yozib qoldiradi.

XX asrning 20-30-yillarida Ustrushona qadimiy tarixiga daxldor yodgorliklarni topish va qayd qilib hisobga olish ishlariga e’tibor qaratiladi.

Xususan, A.A.Semyonov Shahriston yodgorliklari bo‘yicha tarixiy arxeologik sharhini yozadi, O‘ratepaning me’moriy yodgorliklari majmuasini



tuzadi. V.Bartolddan keyin u ham Ustrushonaning poytaxti Bunjikatni Shahriston o‘rnidaligini e’tirof etadi. Shahriston tumani va uning atrofidan topilgan turli arxeologik topilmalar haqida A.G.Mallitskiy ma’lumotlari chop etiladi.

1943-1944-yillarda Farhod GESi qurilishi munosabati bilan qadimgi Ustrushona hududida dastlabki, yirik arxeologik qazuv tadqiqotlari o‘tkaziladi. V.F.Gaydukevich rahbarligidagi Farhod ekspedisiyasi ko‘chmanchi chorvadorlarga tegishli ikkita ko‘hna qabristondan jami 28 ta mozorqo‘rg‘onni ochib o‘rganadi. Qo‘lga kiritilgan arxeologik materiallar ushbu hudud qadimgi aholisining diniy tasavvurlari va dafn etish urf-odatlari haqida ma’lumot beradi. Bu ko‘hna qabriston yaqinida joylashgan Munchoqtepa shahar yodgorligidan milodiy I asrlariga doir imoratlar qoldig‘i, rivojlangan o‘rta asrlarga oid qurilish qatlami vako‘plab sopol idishlar namunalari bilan birga kulollik xumdoni ochib o‘rganiladi.

V.F. Gaydukevichning ta’kidlashicha, qabrlardan topilgan sopol idishlar bilan Munchoqtepada qayd etilgan kulollik mahsulotlari bir-biriga aynan o‘xshash bo‘lib, bu omil shahar aholisi bilan chorvador aholining uzviy iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatganidan darak beradi. Munchoqtepa Shimoliy Ustrushonadagi yirik madaniy markaz maqomida faoliyat ko‘rsatgan shahardir.

Ikkinci jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda Ustrushonaning sharqiy qismida keng masshtabli arxeologik tadqiqotlar boshlanadi. Qidiruv izlanishlari natijasida o‘nlab yangi arxeologik yodgorliklar (shahar, qishloq makonlari, mozorqo‘rg‘onlar), qayd etiladi, ularning to‘laqonli tavsifnomalari tuziladi, topografik planlari olinadi.

O‘lkaning tarixiy geografiyasiga oid o‘tkazilgan dastlabki tadqiqotlarning o‘zi ham ustrushonashunoslikda muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, o‘lka tarixini o‘rganishni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada A.Yu.Yakubovskiy, O.I.Smirnova, A.M.Mandelshtam, N.Negmatov olib borgan izlanishlar tadqiqotlarning umumiy, ko‘lamiga katta hissa bo‘lib qo‘sildi.



1955-yildan tojikistonlik arxeolog, taniqli ustrushonashunos olim, arxeolog N.Negmatov rahbarligida Ustrushonada stasionar asosda, turli mavzu va davrlarga oid keng miqyosda arxeologik ishlar o'tkazila boshlaydi. Bir necha o'n yillar davomida shahar va qishloq madaniyatiga oid makonlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Natijada, Shahriston shaharchasi atrofidagi bir qancha yodgorliklar o'rganiladi. Ustrushonaning poytaxti Bunjikatda davomli qazuv ishlari yo'lga qo'yiladi, Qal'ayi-Qahqaha II qasri, O'rtaqo'rg'on, Tirmizaktepa, Chilhujra qishloq makonlari to'liq ochib o'rganiladi.

1965-1972-yillarda Bunjikatning arki (Qal'ayi-Qahqaha I) to'liq ochilgan va mazkur Ustrushona afshinlari qasridan o'ta noyob me'morchilik na'munalari, tasviriy san'at durdonalari, mahobatli devoriy suratlar, yuksak badiiy yechimga ega, o'ymakorlik bilan hasham berilgan yog'och konstruksiyalar topiladi. Bu davrda shaharning janubiy devorlari bo'ylab bunyod etilgan jamoat va turar-joy mahallalari, ishlab chiqarish mavzelari hamda Qal'ayi-Qahqaha I maydonidagi ibodatxonalar markazi ochib o'rganiladi. Shahriston shaharchasining sharqiy qismida Chorxoxatepa dahmasi, musulmon davri qabristoni va masjid ham ushbu yillar davomida ochilgan. Bu davrda Ustrushona kulollik hunarmandchiligining uchta markazi o'rganilgan. Soyi Burgxona mavzeyida Bunjikat kulollarining mahallasi bilan bir qatorda, O'rateganining g'arbiy chekkasidagi Sari Kubar va Kalininobod tumanidagi G'allatepa yodgorligida ham sopolsoz hunarmandlarning mahallalari tadqiq etilgan.

1970-1972 yillarda Ustrushonaning irrigasiyasi va sug'orma dehqonchiligi tarixiga oid tadqiqotlar Shahristonsoy, Oqsuv, Isfanasoym kabi oqar suv tarmoqlari havzasida o'tkazilgan. Tadqiqotchi A.Bilolovning yozishicha o'rta asrlarda Ustrushonada suv yuritishga ixtisoslashgan irrigasiya tarmoqlari ya'ni shoh ariq (kanal)larning umumiyligi uch ming kilometrni tashqil etgan (Bilalov, 1980).

Shahriston botig'idagi yodgorliklardan tashqari turli yillarda O'rategapadagi



Mug‘tepa, Nov rayonidagi Oqtepada, Toshtemirtepa va Qal’ayi-Sar, Dungchatepa qal’asida, Shirin shaharchasi yaqinidagi sag‘analarda tadqiqotlar o‘tkaziladi.

Ushbu stasionar tadqiqotlar bilan bir davrda, parallel ravishda, arxeologik qidiruv ishlari ham olib boriladi va Ustrushona tarixiga yangi ma’lumotlar beruvchi yuzdan ortiq arxeologiya yodgorliklari o‘rni aniqlanadi.

O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan, o‘tmishda Ustrushonaning g‘arbiy sarhadlarini tashqil etgan Jizzax vohasining tog‘ va tog‘ oldi mavzelari qadimdan aholi zikh o‘rnashgan tarixiy madaniy o‘lkalar qatoriga kirgan. Sangzor va Zominsuv daryolari, ko‘plab soy va buloqlar havzasida hosil bo‘lgan kattakichik vodiylarda lalmikorlikdan tashqari, sun’iy sug‘orish tizimlariga asoslangan dehqonchilik va o‘troq hayot ancha qadimdan boshlangan. Shuningdek, vohaning shimoliy va shimoliy-g‘arbiy sarhadlarida yastangan cho‘l-dasht mavze Mirzacho‘lda arxaik, antik va ilk o‘rta asrlardagi ko‘chmanchi chorvadorlar faoliyati arxeologik materiallarda o‘z aksini topgan. Bu mavzelarda neolit va bronza davri jamoalarining moddiy-madaniyat namunalari qayd etilganini hisobga olsak, bu mo‘jaz tarixiy madaniy o‘lkada inson istiqomati va xo‘jalik yuritish faoliyati ancha qadimdan yo‘lga qo‘yilganini tasdiqlash mumkin bo‘ladi.

1951-yilda O‘zbekistan FA tarix va arxeologiya institutining Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida Zarafshon ekspedisiyasi Jizzax shahridan 50 km shimolda joylashgan Tuzkon va uning atrof hududini arxeologik qidiruv asosida o‘rganib chiqadi. Natijada, Tuzkon, Xonchorbog‘, Qolgansir manzillaridan neolit davriga oid chaqmoqtoshdan yasalgan tosh quollar va bronza davriga taalluqli, archasimon, tursimon naqshli sopol idish parchalari topiladi.

1956-yil mazkur institutning Mohandaryo ekspedisiyasi vohadagi arxeologiya yodgorliklarini o‘rganish ishini davom ettiradi va Jizzax shahridan 30 km shimol tomonda, qadimgi ko‘chmanchi chorvadorlar bilan chegara voha mavzeyida qurilgan, IX-X asrlarda faoliyat ko‘rsatgan Qulpisar raboti va



Dunyotepa qal'asi kichik hajmli qazishmalar asosida o'r ganiladi. Ekspedisiya rahbari Ya.G'.G' ulomovning yozishicha, "Qulpisar rabodi muhim harbiy strategik joyda qurilgan. Unda ko'chmanchi qabilalarning talonchilik yurishlariga zarba beruvchi harbiy kuch jamlangan. Qulpisar so'zi ham shunday kelib chiqqan bo'lib, talonchilar yo'lini yopuvchi "bosh qulf", "asosiy qulf" ma'nosini anglatgan. Haqiqatdan ham, Qulpisar rabodi Jizzax vohasiga shimoliy-g'arb tomondan yo'nalgan yo'lning boshida joylashganligini hisobga olsak, bu fikrlar haqiqatga yaqindir. Chunki, yozma manbalar ma'lumotiga qaraganda, IX-X asrlarda Jizzax (Dizak)da ko'chmanchilarining talonchilik yurishlariga zarba beruvchi islom lashkari "g'oziyalar"ning bir qancha qarorgohlari mavjud bo'lgan .

Ekspedisiya tomonidan aniqlangan Qulpisar mavzeyidagi qiziqarli topilmalaridan yana biri Dunyotepadan 150-200 m chamasi janubiy-sharq tomonda joylashgan tosh inshoot dolmendir. Dolmen sag'ana, qabrning bir turi bo'lib, uning ustki qismi o'rtasi hovuzchasimon botiq,, tosh bilan yopilgan. Ya.G'.G' ulomov fikricha, bu yerda qadimgi diniy urf-odatlardan biri, ma'budlar, ajdodlar ruhiga atab qilinadigan qurbanlik marosimlari o'tkazilgan. Dunyotepa qal'asining ilk qurilish davri milodiy eraning I-II asrlari bilan sanalangan.Ta'kidlash joizki, mahalliy aholi tomonidan hanuzga qadar bu yerda qurbanlik marosimini o'tkazish an'anasi saqlanib qolgan.

Ushbu 1956-yilning kuz oylarida mazkur ekspedisiyaning A.R.Muhammadjonov rahbarligidagi otryadi Jizzax shahrining janub tomonida, Morguzar tog'ining sharqiy qismida joylashgan Takatosh manzilidan, qoyatoshlarga o'yib chizilgan "suratlar galereyasi"ni topishga muvaffaq bo'ladi. Neolit va bronza davridan rivojlangan o'rta asrlargacha bo'lgan uzoq o'tmish bilan sanalangan mazkur qoyatosh suratlarida turli hayvonlar: ohu, bug'u, ot, qoplon, it tasvirlari, odamlar va ularning olomon bo'lib ov qilishi, diniy marosimlarni o'tqazish manzaralari aks ettirilgan.



1957-1959-yillarda Moxandaryo ekspedisiyasi tarkibida Jizzax vohasi Kanpirak devori tarixini o‘rgangan X.Muhamedovning aniqlashicha, Sangzorning o‘rta oqimi vodiysida joylashgan muayyan hudud yoysimon shakldagi devor bilan o‘rab olingan. Devor, Jizzax shahridan 12 km masofa janubiy sharq tomonda joylashgan Olmachi qishlog‘idagi o‘rta asr qishloq makoni (V-VIII; IX-XII asr) Siypanchiqotepadan boshlangan va ikki yo‘nalish bo‘yicha tarmoqlangan. Devorning dastlabki tarmog‘i janubiy-sharqqa, ayrim mutaxassislar tomonidan Burnamad rustoqi sifatida talqin qilinayotgan Ravot qishlog‘idagi Qo‘rg‘ontepaga, undan To‘rtko‘ltepaga qadar qariyb 15 km masofa cho‘zilib borgan va Ko‘rpasoy darasining old qismidagi Uchqiztepaga borib tutashgan. Voha devorining Siypanchiqtepadan bosh olgan ikkinchi tarmog‘i esa, dastlab shimol tomoniga yo‘nalgan va vohaning eng qadimgi va ulkan shahar yodgorligi Qaliyatapaning sharq tomonidan o‘tib yoysimon shaklda g‘arba burilgan. Devor Qaliyatepadan 8 km shimolda joylashgan, Hudaysar rabodi sifatida talqin qilinayotgan Ko‘krabod yodgorligining shimoliy-sharq tomonidan o‘tib, butunlay g‘arba yo‘nalgan va Jizzaxning o‘rta asrlardagi o‘rni O‘rdaning shimolidan janubga burilib, Kuyovboshi qishlog‘i orqali Nurota tizmalariga borib taqalgan. Bu devorning uzunligi qariyb 60 km. ga yetgan. Devorning davomi tog‘ning janubiy yon bag‘ridagi Oqtepadan boshlanib Xarakana rustoqi (hozirgi G‘allaorol) sari yo‘nalgan.

Keyingi yillarda o‘tkazilgan arxeologik qidiruv, qazuv tadqiqodlari natijalariga ko‘ra, Jizzax Kanpirak devori V-VIII asrlarda faoliyat ko‘rsatgan va bir necha maqsad, vazifalarda undan foydalanilgan. Xususan, Jizzaxga va Sug‘dning markaziy hududlariga uyushtiriladigan ko‘chmanchilarning talonchilik tajovuzlari amalga oshiriladigan ikki asosiy yo‘nalish – Ilono‘tti (Temir darvoza) darasi va Ravot orqali Morguzarni ustidan o‘tadigan – Ko‘rpasoy darasi yo‘llari yopilgan. Bundan tashqari, devor Jizzax (Dizak) shahri va uning tegrasidagi sug‘orma



dehqonchilikka asoslangan ziroatkor yerlar bilan voha, dasht hudud o‘rtasidagi chegara vazifasini o‘tagan. Devor o‘ramasi ichida 50 ga yaqin ilk o‘rta asrlarga oid turar joy makonlari faoliyat ko‘rsatgan. Va albatta, Jizzaxning voha devoridan ekin paykallarini Mirzavoha tomondan esadigan issiq shamol, garmseldan muayyan darajada ihota qilish uchun ham foydalaniłgan. 1964-yil M.Aminjonova rahbarligidagi Samarqand otryadi O‘zbekistan arxeologiya yodgorliklari majmuasini tuzish, xaritasini yaratish mavzusi bo‘yicha Jizzax vohasi Zomin tumani hududida qidiruv ishlarini o‘tkazadi. Shuningdek, otryad o‘z oldiga Ustrushonaning o‘rta asrlardagi Zomin rustoqi bosh shahri o‘rnini aniqlashni ham maqsad qilib quygan edi. O‘rta asr Zomini sifatida talqin qilingan O‘rdatepada qazuv ishlari o‘tkazgan M.Aminjonova arxeologik topilmalarga asoslanib - “O‘rdatepa IX-X asrlarda tashlab ketilgan Zomin madinasi bo‘lishi mumkin emas, yangi shahar (Sarsanda)ni Zominsuvning yuqori oqimidan, tog‘dan chiqish qismida joylashgan to‘rtta shahar o‘rnidan izlash kerak”, - degan fikrni bildiradi. Xuddi shu nuqtai-nazarni, keyinchalik A.Berdimurodov ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Qadimgi Ustrushonaning O‘zbekiston qismidagi diqqatga sazovor, turli farazlar, ilmiy qarashlarga sabab bo‘lgan, “Sak taqvimi” nomi bilan arxeologiya fanida emas, balki ko‘proq OAVda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan G‘allaorol tumanidagi Shahidtepa yodgorliklari majmuasidir. O‘zbekiston Madaniyat Vazirligining San’atshunoslik instituta olimlari L.I.Rempel va E.V.Rtveladze rahbarligidagi ilmiy guruh ushbu “g‘alati qurilma” ning markaziy shoh qo‘rgoni Shahidtepada 1966-yilda qazish ishlarini o‘tkazishishadi” - Lekin, qazuv-tadqiqotlari davomida Shahidtepa va unga aloqador boshqa tepaliklarda madaniy qatlam qoldiqlari uchramaydi va ularni soxta qo‘rg‘onlar ekanligi ayon bo‘ldi.

Shahidtepa kompleksi atrofini o‘rgangan mutaxassislar mazkur hududdagi jarlik kir gogining er satxidan 5 m chuqurlik toyidan mozorqo‘rg‘on katakombasi qoldig‘ini va chalqancha yotgan odam suyaklari hamda temirdan yasalgan



shamshirni topishadi. E.V.Rtveladzening fikricha, bu tepasiga tuproq uyilmagan lahad-go‘r bo‘lib, u yangi eraning I asriga oiddir.

1970-yillarda Jizzax vohasiga turli mavzu va ilmiy maqsadlarni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan ko‘plab ekspedisiyalar, otryadlarning xizmat safarlari uyushtirilgan.

Jumladan, 1973-yil UzR FA Arxeologiya institutining Sh.S.Toshxo‘jayev rahbarligidagi otryadi Jizzax dashtini yangi o‘zlashtirilayotgan mavzelerida qidiruv ishlarini o‘tkazadi va 31 ta ko‘hna obida xarobalarini, 20 ga yaqin mozorqo‘rg‘on o‘rnini topib hisobga oladi.

Shunday qilib yurtimizda sovet hokimiyati o‘rnatilguncha bo‘lgan davr, nafaqat, Ustrushonadagi tarixiy yodgorliklar, balki butun O‘rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyatini o‘rganish bo‘yicha dastlabki qadamlar edi. Bu davrda garchi, Ustrushonadagi yodgorliklarni o‘rganish bo‘yicha alohida mavzu doirasida, maxsus rejaga asoslangan ekspedisiyalar uyushtirilmagan bo‘lsada, tarix ilmiga qiziquvchi va u bilan shug‘ullanuvchi ilmiy jamoatchilik orasida Ustrushonaning boy moddiy madaniyati va shaharsozlik tarixi haqida ma’lumotlar to‘plangan va bu keyingi tadqiqotlar uchun asos vazifasini o‘tagan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.H.Pardayev, B.B.To‘ychiboyev “Ustrushona qadimda va ilk o‘rta asrlarda” Toshkent:. 2017-y.
2. Grisina A.A. Ustrushanskiye bили. Tashkent, 2000-y.
3. M.H.Pardayev, F.E.Toshboyev “Ustrushonaning qadimgi davr davlatchiligi” Toshkent:. 2020-y.
4. O‘zbekiston tarixi davlatchiligi ocherklari, T, Sharq, 2001-y.
5. Pardayev.M.H “Qadimgi Far’gona va Ustrushonaning moddiy madaniy aloqalari” (Farg‘ona qadim va o‘rta srlarda) Samarqand, O‘zR FA AI nashri. 1994
6. Abayev V.I. “Sredneaziatskiy politicheskiy termin Afshin” VDI, 1959, 542 № 2
7. Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.



8. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. *Science and innovation*, 2(B4), 481-484.
9. Бобомуротов Т. М. Репрессивные органы как инструмент колониальной политики Советской власти Дисс. на соиск. уч. степ. канд. ист. наук. Т. 2016
10. Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *Марказий Осиё тарихи ва маданияти*, 1(1), 122-125.
11. Nazarov, OR, va Nematov, RAO (2020). O'ZBEKISTONNING YUNESKO BILAN HAMKORLIK TARIXIDAN. *Guliston davlat universiteti axborotnomasi*, 2020 (4), 45-49.
12. Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. *IQRO JURNALI*, 2(2), 597-600.
13. Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. *PEDAGOGS jurnali*, 10(4), 182-185.
14. Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. *PEDAGOG*, 1(3), 327-329.